

QASHQADARYO HUDUDIDA TARQALGAN *ORTHETRUM SABINA* (DRURY 1770), NINACHI TURINI TAKSONOMIYASI VA MORFOBIOLOGIYASI

NORQOBILOVA ZARINA BOYQOBIL QIZI

Qarshi davlat universiteti, Qarshi shahri, O'zbekiston

e-mail pochta: norqobilova_zb@qarshidu.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada 2020-2023 yillar davomida Qashqadaryo odonatafaunasi monitoring qilish natijasida aniqlangan Libellulidae oilasiga mansub ninachilarning *Orthetrum Newman, 1833* avlodiga mansub: *Orthetrum sabina* Drury 1770 turlarining aniqlangan joyi, muddati, turlar morfobiologiyasi ham keltirilgan.

Hozirgi kunda dunyo miqyosida demografik vaziyatning murakkablashishi oqibatida vujudga kelgan urbanizatsiya jarayonlari va antropogen omillar hisobiga kuzatilayotgan transformatsiya jarayoni ekologik holatning keskin o'zgarishiga va bioxilma xillikning tur tarkibiga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

Ekologik muvozanatning buzilishi hasharotlar dunyosi xilma-xilligining kamayishiga hamda arealining qisqarishiga olib kelmoqda. Hasharotlar sinfining eng qadimiy vakili hisoblangan ninachilarning lokal yashash joylarining qisqarishiga, noyob va kamyob turlarining yo'q bo'lib ketishiga sabab bo'lmoqda. Shuning uchun ham tabiiy va urbanlashgan hududlarda ninachilarning tur tarkibini aniqlash, bioekologik xususiyatlarini o'rganish, munozarali turlarni morfologik hamda molekulyar usullar yordamida tahlil qilish, kamyob va yo'qolib borayotgan turlarini muhofaza qilish chora-tadbirlari ishlab chiqish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. [2,36-37 b;]

Ninachilarning murakkab hayot tarzi, yashash muhitiga yuqori moslashuvchanligi va biotsenoz tizimiga kuchli ta'siri tufayli bu hasharotlar qadimdan tadqiqotchilar diqqatini tortib kelgan. Hozirgi vaqtgacha tadqiqot ob'ekti sifatida ninachilar ustida ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilgan. Qashqadaryo hududida ham ninachilarni o'rganish bo'yicha deyarli ilmiy tadqiqotlar olib borilmagan. Shuning uchun ham bu hududda ninachilar turkumiga mansub hasharotlarni bioekologiyasini, keng tarqalgan turlarining hayotiy siklini, turlar tarkibini, tarqalishini o'rganish hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biridir.

Tadqiqot materiallari Qashqadaryo viloyati hududlaridan 2020-2023 yillar davomida yig'ildi. Ninachilarni o'rganish individual va kompleks faunistik ekspeditsiyalar paytida olib borildi. Doimiy tadqiqotlarda asosan Qashqadaryo viloyati Koson, Kasbi, Yakkabog' va Qarshi tumanida joylashgan Qashqadaryo daryosi hamda Yakkabog' tumanidagi Qizildaryo o'zani atrofida, tashlama kanallarda, zovur va kollektorlarda olib borildi. [4,13-22 b;]

Olingan natijalarga ko'ra, tadqiqot hududida Libellulidae oilasiga mansub *Orthetrum Newman, 1833* avlodiga mansub – *Orthetrum sabina* (Drury, 1770), turi tarqalganligi aniqlandi ***Yuqoridagi ninachi turining taksonomiyasi va morfobiologiyasi bilan tanishamiz.*** [2,36-37 b;]

Sinf: Insecta (Linnaeus, 1758)

Kenja sinf: Pterygota (Gegenbaur, 1878)

Bo'lim: Palaeoptera (Martynov, 1923)

Bosh turkum: Odonatoptera (Martynov, 1932)

Turkum: Odonata (Linnaeus, 1758)

Kenja turkum: Anisoptera (Selys, 1854)

Oila: Libellulidae (Rambur, 1842)

Kenja oila: Libellulinae Rambur, 1842


Avlod: *Orthetrum* Newman, 1833

***Orthetrum sabina* (Drury, 1770)**

Aniqlangan joyi va muddati: Qashqadaryo viloyati, Qarshi tumani 2 ♂, 1 ♀, 38°50'42.39"N 65°56'54.13"E, Qamashi tumanidan 3 ♂, 1 ♀, 824 m 38°56'01"N, 66°14'39"E koordinata nuqtalaridan aniqlangan (16.08.2022).

Morfobiologiyasi. Tadqiqot hududida keng tarqalgan turlardan biri hisoblanadi. Boshi sariq-yashil rangli bo'lib, ko'kragi qora chiziqli yashil-sariq rangda. Tanasining uzunligi 40,2±0,55 mm, qornining uzunligi 34,4±0,64 mm, old qanotlarining uzunligi 30,0±0,52 mm, orqa qanotlarining uzunligi 34,7±0,65 mm gacha boradi. Bu ninachi turida qornining birinchi-uchinchi bo'laklari asosida shishib chiqqan va keng qora aylanasi bor. Qanotlari shaffof rangli, panjalari esa qora tusli. Bu ninachi turining erkagi va urg'ochisi tashqi tomondan bir-biridan ajratish qiyin. Tog'li zonalarda iyul – avgust oylarida uchratdik. Lichinkalari oqar suvli havzalarda yashaydi.

Tarqalish areali. Evroosiyo-avstraliya subboreal-tropik turi bo'lib [1], Singapur, Tayland, Gonkong, Vetnam, Malayziya, Kambodja, Laos, Indoneziya, Shri-Lanka, Xitoy, Hindiston, Bangladesh, Avstraliya, Yaponiya, Oman, Saudiya Arabistoni, Qatar, O'zbekistonda, shu jumladan Qashqadaryoda tarqalgan tur. Ayrim mualliflar kosmopolit tur hisoblashadi [5, 5-14 b].



1-rasm. *Orthetrum sabina* (Drury, 1770): a-umumiy ko'rinishi; b-qanotlari;

s-hasharotning uzunligi; d-qanotsiz tananing yuqoridan ko'rinishi.

Yuqoridagi ninachi turi Qashqadaryo hududida kenga tarqalgan oila vakili bo'lib asosan adir, tog' qisman o'zlashtirilgan cho'l mintaqasida tarqalgan. Tabiatda antropogen omillarga tasiri ham ijobiy ko'rsatkichga ega. *Orthetrum sabina* turning imogasi limnobiont turlarga kiritilib, bu ninachilarning asosiy yashash sharoiti turg'un suvlar bo'lib, ba'zan oqova suvlar atrofida ham uchraydi. *Orthetrum sabina* turlari limno-reofil tur bo'lib, hozirgi kunda ekologik sharoitning o'zgarishi bilan yashash hududi tog'li hududlardan o'zlashtirilgan cho'l va chalacho'l hududlarga tomon kengayib bormoqda. Biroq asosiy populyatsiyalari tog' va adirlarda keng tarqalgan.

Foydalanilgan adbiyotlar ro'yxati:

1. Belishev B.F., Xaritonov A.Yu. O rasprostraneni roda *Orthetrum* Newm. (Odonata, Libellulidae) II Vesti, zool.-Kiev, №3.1979.-S.81-84.
2. Dijkstra K.D.B., Bechly G., Bybee S.M., Dow R.A., Dumont H.J., Fleck G., Garrison R.W., Wares J. The classification and diversity of dragonflies and damselflies (Odonata). // Zootaxa, 3703, 2013. -36 pp.
3. Belishev B.F., Shevchenko V.V. Fauna strekoz (Odonata, Insecta) i raspredelenie eyo komponentov v Kazaxstane // Biologicheskie nauki Vip. 2. -A-A, 1971. -S. 73-77.
4. Qizi, N. Z. B. (2024). PROSPECTS FOR THE FUTURE STUDY OF THE ODONATA ORDER: A REVIEW OF PUBLISHED ARTICLES FROM THE SCOPUS DATABASE 2019–2023. European science review, (3-4), 13-22
5. kizi Norkobilova, Z. B., Rakhmatullayev, A. Y., & ogli Boyjigitov, O. D. (2023). PRELIMINARY INFORMATION ABOUT DRAGONFLIES FAUNA DISTRIBUTED IN KASHKADARYA REGION. World of Scientific news in Science, 1(3), 5-14.
6. Yusupovich, R. A. (2022). ECOLOGICAL-FAUNIST ANALYSIS OF COXINALLIDES (COLEOPTERA, COCCINELLIDAE) OF THE KARSHI OAKH. *Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development*, 4, 331-335.
- 7.